



«Bir umrga yorqin tabassum»

xalqaro bolalar dasturi



Stomatologiya salomatligi bo'yicha dars qo'llanmasi

Colgate kompaniyasi ko'magida O'zbekiston stomatologlar uyushmasi va mamlakatning ilg'or tibbiy o'quv yurtlarining stomatologiya fakultetlari tomonidan o'tkazilayotgan "Bir umrga yorqin tabassum" xalqaro bolalar dasturiga xush kelibsiz. Mazkur dasturning mohiyati bolalarning yoshligidanoq og'iz bo'shlig'i parvarishlash qobiliyatini rivojlanishga qaratilgan tadbirlar majmuasidan iboratdir. Ushbu darslarda dunyo bo'ylab 1 milliarddan ortiq bolalar ishtirok etishga ulgurdi. 2017-yili loyiha bizning ham mamlakatimizda o'z ishini muvaffaqiyatli boshlagan.



"Bir umrga yorqin tabassum" dasturi tufayli stomatologlar, gigiyenistlar va o'qituvchilar uchun maktablarda va bolalar bog'chalarida stomatologiya darslarini tashkil etish ancha yengillashdi. Ushbu kompleks dastur 6-10 yoshli bolalar uchun ancha qiziqarli bo'ladi, u mavjud ta'lim dasturiga qulay tushadi va stomatologiya klinikalari hamda o'quv yurtlari talablariga qulay moslashadi.

- Dasturning multimedya qismida ikki multiplikatsion qahramon – Doktor Quyon va Doktor Tabassum ishtirok etishadi. Ular og'iz bo'shlig'i gigiyenasining dunyosida bolalar uchun yo'l ko'rsatuvchisi bo'ladi. Foydalanish uchun qulay bo'lgan didaktik materiallari bolalarga o'yin shaklida o'rganishga yordam beradi.
- Dars jarayonida olingan bilimlarning mustahkamlanish jarayoniga oila a'zolarining jalb etilishi kabi muhim narsani esdan chiqarmaslik lozim. Ushbu maqsad uchun uyda foydalanish uchun materiallар ham taqdim etiladi.

Stomatologiya salomatligi darsini o'tkazish uslubi bilan tanishing va "Bir umrga yorqin tabassum" dasturining ishtirokchisiga aylaning!



«Bir umrga yorqin tabassum» deb nomlangan stomatologiya salomatligi darsini o'tkazish uslubi

Darsning maqsadi

Yangi so'zlar bilan tanishish, og'iz bo'shlig'i gigiyenasinining asosiy qoidalari o'yin tarzida o'rGANISH, jag' modellarida tishlarni to'g'ri yuvish texnikalarini amaliyotda o'rGANISH, uy sharoitida o'rGANISH uchun mo'jalangan materiallar yordamida dars davomida olingan bilimlarni mustahkamlash.

Dars tuzilmasi

(40 daqqaq)

1 Bolalar bilan tanishish

2 Tushunarsiz so'zlarga oydinlik kiritish

3 Multfilm tomosha qilish

4 Og'iz bo'shlig'ini parvarishlash qoidalari (plakat bilan ishlash)

5 Tishlarni tozalash texnikasi (jag' modellari bilan ishlash)

6 Uy vazifasi va materiallarni tarqatish

Darsga tayyorgarlik

- Ekran bilan proyektor, ovoz moslamalari yoki plazma panelini ishga tayyorlang
- Multfilmni sinov namoyishini ishga tushiring
- "Tish gallaktikasining qahramoniga aylan" plakatini sinfda joylashtiring

- Namoyish uchun tayyorlangan tish cho'tkasi bilan jag' modelini tayyorlab qo'ying
- sinfdagi barcha bolalar yoki bog'cha guruhidagi bolalarga uyida ishlatish uchun beriladigan tarqatma materiallarini tayyorlang

1 Bolalar bilan tanishish

(5 daqqaq)


Bolalar bilan tanish bo'lmasangiz o'zingizni tanishtiring – ularga siz stomatolog (gigiyenist/talaba) ekanligingizni va bugun salomatlik dars o'tishingizni so'zlab bering.

Doskada bolalarga tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlarni yozing: galaktika, stomatolog, tish karashi, kariyes, og'iz chayish uchun suyuqlik, ftorid.

Bolalar bilan tushunrasiz so'zlarining ma'nolarini muhokama qiling. Masalan, ftorid bu kariyes bilan kurashishga yordam beruvchi tish pastasining asosiy tarkibiy qismi ekanligini tushuntiring.

Bolalarni multfilm tomosha qilishga tayyorlang: Ularga Tanya ismli qiz va uning do'stlari bilan Chirkitsish ismli gersog hujum qilgan Tish galaktikasida sarguzashtlar kutayotganligini aytинг

2 Tushunarsiz so'zlarga oydinlik kiritish



3 Multfilmni tomosha qilish

(10 daqqaq)

4 Og'iz bo'shlig'ini parvarishlash qoidalari

(plakat bilan ishslash, 10 daqqa)

Bolalar bilan multfilmda kechgan hodisalarni muhokama qiling, uning mazmunini bolalar tushunganligini tekshiring. Taklif etiladigan savollar:

- Multfilmning asosiy qahramonlari kimlar?
- Tish galaktikasini himoyachilari Chiriktish bilan kurashishda qanday quroldan foydalanishdi?
- Chiriktish va uning yordamchilari tishlarga qanday qilib zarar yetkazdilar?
- Nima uchun tish karashi bilan kurashish kerak?

“Tish galaktikasining qahramoniga aylan” plakati yordamida multfilmni tomosha qilish paytida olingen bilimlarini mustahkamlang.



Ftorli tish pastasi bilan tishingni kuniga 2 marta tozala: nonushtadan so'ng hamda uqlashdan oldin



Tish cho'tkangni har 3 oyda almashtir



Tish oralaridagi karashni tozalash uchun har kuni tish ipidan foydalan



Tishni har safar tozalagandan so'ng og'zingni og'iz chayish suyuqligi bilan chayib tashla



Shirinlik va gazli suvlarni kamroq iste'mol qil – ular tishlarga zarar yetkazadi!



Dadil bo'l – yiliga 2 marta stomatolog ko'rigidan o'tgin

5 Tishlarni tozalash texnikasi

(jag' modellari bilan ishslash, 10 daqqa)

Bolalardan so'rang: “Tish galaktikasining haqiqiy qahramoniga aylanib Doktor Quyon jamoasiga qo'shilishni istarmidingiz?”. Muhokamadan so'ng e'lon qiling: “Unday bo'lsa siz bilan biz Chiriktishga qarshi quroqla ega bo'lishimiz kerak va tishlarni to'g'ri tozalashni o'rganishimiz kerak. Va bunda bizga plakatlar va jag' modellari yordam beradi”.

Bolalarga plakatda tishlarni tozalash bosqichlarini ko'rsating va jag' modellari bilan tish cho'tkasi yordamida namoyish qiling (agar ular sizda bo'lsa).

Bir nechta o'quvchini doskaga navbat bilan chiqishni taklif qiling va hammasini qadam baqadam bajarishni so'rang.

1 Tashqaridan



Tishlarni milklardan tish chetiga qarab, tepadan pastga supurgan holda tozala

2 ichidan



Har bir tishning ichki yuzasini milkdan tishning chetiga qarab supurgan holda tozala

3 Jag' tishlari



Har bir tishning chaynash yuzasini oldinga va orqaga harakatlantirib tozala

4 Old tishlarning ichki yuzasi



Tish cho'tkasining uchidan foydalanib, tepe va pastgi old tishlarning ichki devorini supurgan holda tozala

5 Til yuzasi



Og'izdan badbo'y xid chiqishiga sabab bo'ladigan bakteriyalarni o'ldirish uchun tilingni tozalashni unutma

6 Uy vazifasi va bolalarga materiallarni tarqatish

(5 daqqa)

Tish galaktikasining haqiqiy qahramoniga aylanish uchun bolalar ko'p mashq qilishlari kerakligini e'lon qiling, shu bois, bugundan boshlab ular Tish galaktikasini qutqarish uchun bo'ladigan har bir jangini tish tozalash maxsus kalenderida belgilab borishlari kerak.

Bolalarga ota-onalari bilan kalendarni vanna xonasida yoki uyning ko'rindigani joyida osib qo'yishni taklif qiling va har kuni ertalab hamda kechqurun tishlarini tozalagandan so'ng belgi qo'yib borishlarini aytинг.

Bolalarga kalendarning yuqori qismida ismini yozishga yordam bering. Ularga Tish galaktikasining qahramoni diplomini qo'lga kiritish uchun bir oydan so'ng to'ldirilgan kalendarlarini olib kelishini so'rang.

Dars niyoyasida bolalarga uyda ishslash uchun tarqatma materiallarni tarqating va dars yoqqan yoqmaganligini so'rang, shuningdek, ularga Chiriktish bilan jang qilishda muvaffaqiyat hamda tezroq Tish galaktikasi qahramonlari safiga tez orada kirishini tilab qoling.



Stomatologik kasalliklar profilaktikasi dasturining didaktik materiallari

«Bir umrga yorqin tabassum»




Stomatologiya salomatligi darsini o'tkazish bo'yicha yo'riqnomalar

Dastur bo'yicha mazkur "yo'l ko'satgich" siz tish shifokorimisiz, gigiyenistmisiz, muktab o'qituvchimisiz, bolalar bog'chasidagi tarbiyachimisiz yoki shunchaki farzandingizni yaxshi ko'radigan ota-onasimisiz, sizga bolalar uchun stomatologiya salomatligi darsini qiziqarli va foydali o'tkazishga yordam beradi.




«Tish gallaktikasidagi sarguzashtlar» multfilmi

Yovuz gersog Chirkitsidan Tish gallaktikasini himoya qiluvchi Doktor Quyon va uning do'stleri jamoasi haqidagi quvnoq multfilm. Bolalar ularning sarguzashtlarini maroq bilan kuzatishadi. Davomiyligi: 8 daqqaq. Multfilmlni www.colgate.ru saytidan yuklab olishingiz mumkin.



«Tish gallaktikasining qahramoniga aylan» plakati

Plakat multfilmda keltirilgan materiallarni mustahkamlashga yordam beradi, tishlarni to'g'ri tozalash texnikasiga va og'iz bo'shlig'ini parvarishlash asoslariga urg'u beradi.



Tish gallaktikasi qahramonining tishlarni tozalash kalendar

Bolani xursand qiluvchi rangli kalendar unga har kuni tishlarni tozalash kerakligini hamda og'iz bo'shlig'ini to'g'ri parvarishlash muhimligini eslatib turadi. Dars oxirida ushbu tishlarni tozalash hamda orqasida ota-onalar uchun ma'lumot kalendarini har bir bolaga tarqating.




Ota-onalar uchun ma'lumot

Tishni tozalash kalendarining orqasidagi ota-onalar uchun og'iz bo'shlig'i gigiyenasi asoslari ma'lumotlari, oilaning kundalik hayotida tishlar va milklarni to'g'ri tozalash asoslarini qulay tatbiq qilish bo'yicha amaliy maslahatlar keltirilgan.



Tish gallaktikasi qahramonining diplomi

Tishlarni tozalash kalendarini to'ldirgandan so'ng stomatolog yoki o'qituvchi tantanali ravishda bolalarni ismi to'ldirilgan Tish gallaktikasi qahramoni diplomlari bilan taqdirlaydi.



Tish tozalayotgan paytda suv jo'mragini yopishni unutmang

Keltirilgan didaktik materiallarni siz o'zingiz www.colgate.ru saytidan yuklab olishingiz mumkin.

Bolaga og'iz bo'shlig'ini to'g'ri parvarishlashni va to'g'ri ovqatlanish asoslarini maroqli o'rGANISHGA yordam bering – bolalaringiz uchun «Mening yorqin tabassumim» ilovasini yuklab oling hamda u haqda do'stlaringiz va tanishlaringizga aytib bering!



App Store-ga yuklab olish

Google Play-da mavjud